



## 16-SON MHXS ASOSIDA AKTIVDAN FOYDALANISH HUQUQI VA IJARA MAJBURIYATINI MOLIYAVIY HISOBOTLARDA AKS ETTIRISHNING AYRIM MASALALARI

**Xasanboyev Oxunjon**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-6788-3861

[oxunjonxasanboyev@gamil.com](mailto:oxunjonxasanboyev@gamil.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijara muomalari hisobini 16-sonli MHXS asosida tashkil etish masalalarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Xususan, aktivdan foydalanish huquqi tarzidagi aktiv hamda ijara majburiyati hisobi hamda ularning moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda aktivdan foydalanish huquqi tarzidagi aktiv va ijara majburiyatini tan olish shartlari hamda ularni tegishli moliyaviy hisobotlarga izohlarda yoritish masalalari ham tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijara shartnomasi, foydalanish huquqi tarzidagi aktiv, ijara majburiyati, diskontlash stavkasi, ijara to'lovi, ijara muddati, joriy qiymat, ijara subyekti, ijara obyekt, amortizatsiyalangan qiymat.

## НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОТРАЖЕНИЯ ПРАВА ПОЛЬЗОВАНИЯ АКТИВОМ И ОБЯЗАТЕЛЬСТВА ПО АРЕНДЕ В ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ НА ОСНОВЕ МСФО 16

**Хасанбаев Охунжон**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В данной статье проанализированы особенности организации учёта арендных операций в соответствии с МСФО (IFRS) 16. В частности, рассмотрены вопросы отражения в бухгалтерском учёте и финансовой отчётности актива в виде права пользования и обязательства по аренде. В исследовании изучены условия признания актива в виде права пользования и обязательства по аренде, а также вопросы их раскрытия в примечаниях к соответствующей финансовой отчётности.

**Ключевые слова:** договор аренды, актив в виде права пользования, обязательство по аренде, ставка дисконтирования, арендный платеж, срок аренды, текущая стоимость, субъект аренды, объект аренды, амортизированная стоимость.

## CERTAIN ISSUES OF REFLECTING RIGHT-OF-USE ASSETS AND LEASE LIABILITIES IN FINANCIAL STATEMENTS BASED ON IFRS 16

**Hasanboyev Okhunjon**

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article analyzes the specific aspects of organizing the accounting for lease transactions in accordance with IFRS 16. In particular, it examines the recognition and presentation of the right-of-use asset and lease liability in the financial statements. The study explores the conditions for recognizing the right-of-use asset and lease liability, as well as the issues related to their disclosure in the notes to the relevant financial statements.*

**Keywords:** *lease agreement, right-of-use asset, lease liability, discount rate, lease payment, lease term, present value, lessee, lessor, amortized cost.*

### **Kirish.**

2019 yil 16-son MHXS qabul qilinishi, barcha MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlovchi va taqdim etuvchi iqtisodiy subyektlarda ijara operatsiyalari hisobini tubdan o'zgarishiga sabab bo'ldi. Ushbu yangi standartni amaliyotga tadbiiq qilinishi, barcha ijara shartnomalar hisobini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. Yangi standardga ko'ra, endilikda ijaraga oluvchilar uchun yagona ijara hisobi modeli yaratildi. Unga ko'ra, ijaraga oluvchilar muddati o'n ikki oydan ortiq yoki past qiymatli aktiv bo'lmagan aktivlar ijarasi bo'yicha barcha ijara shartnomalarini moliyaviy hisbotda foydalanish huquqi tarzidagi aktiv va ijara majburiyatini aks ettrishi belgilab qo'yildi. Bunda ijaraga oluvchi endilikda ijara shartnomasi bo'yicha yangi aktiv-foydalanish huquqi tarzidagi aktiv va unga mutanosib yangi majburiyat-ijara majburiyatini tan oladi.

Yangi standard joriy etilguncha amalda bo'lgan 17-son BHXS da, ijaraga oluvchi uchun, ijara operatsiyalari operativ va moliyaviy ijara sifatida hisobga olingan va moliyaviy hisobotlarda faqat moliyaviy ijara bo'yicha majburiyat tan olingan. Bu o'z navbatida, ijaraga oluvchilar hisobida balansdan tashqari ahamiyatli qiymatdagi ijaraga olingan aktivlar va ularga tegishli majburiyatlarni moliyaviy hisobotlarda aks etmay qolishiga sabab bo'lgan. Yangi standartni joriy etilishi, ushbu amaliyotni bekor qildi va ijaraga oluvchilar moliyaviy hisobotlarida ijara shartnomalarini yanada shaffofroq aks ettirish imkonini yaratdi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda ham iqtisodiyot subyektlarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro amaliyotlar asosida tayyorlash va taqdim etish chora-tadbirlari jadal amalga oshirilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 24-yil fevraldagi PQ-4610-son qaroriga asosan, 2021- yil 1-yanvardan boshlab, tijorat banklari, yirik soliq to'lovchilar, aksiyadorlik jamiyatlari va sug'urta tashkilotlari MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritishi hamda moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi va taqdim etishi belgilab qoyildi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotdagi barcha MHXS asosida hisob yurituvchi ijara subyektlarida ijara operatsiyalarini 16-son MHXS talablari asosida hisobga olish zaruratini kelitirib chiqardi. Shu bois, ijara muomalalarini xalqaro va milliy amaliyotlar asosida tahlil qilish, xusuan foydalanish huquqi tarzidagi aktiv hamda ijara majburiyatini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalari bugungi kun zaruratidir.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Ijara operatsiyalarining iqtisodiyotdagi ahamiyati, ularni hisobga olish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish borasida bugunga qadar ko'plab olim va tadqiqotchilar o'z ishlarida o'z fikrlarini bayon qilishgan.

Xorijiy olimlardan Gordon va boshqalar (2025) olib borgan tadqiqotida ijara xarajatlari va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning korxonalar moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari va qarz olish imkoniyatini baholashdagi ta'sirini tahlil qilgan. Ularning fikriga

ko'ra, ijara bo'yicha xarajatlar korxonalarining kredit olishida bank tomonidan qarz stavaksini belgilashda ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, qarz beruvchi tashkilotlar qarz berishda ijara xarajatining hajmini hisobga olgan holda kredit riskini baholaydi. Ijara xarajatlarining ko'pligi qarz xarajatini oshishiga biroq ijara majburiyatini tan olish esa ijara xarajatlarini kamaytirgan xolda ko'rsatishi natijasida korxonlarda qarz olish imkoniyati va qarz xarajatini kamayishiga sabab bo'lishini izohlagan. Chen, Correia va Urcan (2023) ijara shartnomasini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish korxonalarining nafaqat buxgalteriya hisobida balki ularning investitsion qarorlarida ham jiddiy ta'sir ko'rsatishini o'rganishgan. Korxonalar ijara shartnomalarini tan olish maqsadida tan olinishi mumkin bo'lgan majburiyatlar va ularning kredit shartnomalaridagi kovenantlarga ta'sirini o'rganishi natijasida ortiqcha amalga oshirilgan investitsiyalarni qisqartirishi, kovenantlarga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi investitsiyalarni rad etishiga sabab bo'lishi ta'kidlangan. Sorrentino, Smarra va Briamontelar (2020) esa o'z tadqiqotlarida ijara shartnomalariga muvofiq ijaraga oluvchi moliyaviy hisobotlarida ijara bo'yicha aktiv majburiyat tan olish zaruriyati ijara bo'yicha amalga oshiriladigan to'lovlardan bo'lib-bo'lib amalga oshirishning iqtisodiy mazmunidan emas, balki ijaraga olingan aktiv bo'yicha huquq va majburiyatlardan kelib chiqishini ta'kidlagan. Ular fikriga ko'ra ijara bo'yicha aktiv va majburiyat tan olinishi shartnoma bo'yicha mulk huquqi aniqlash bo'yicha yondashuv, shartnomaning majburiyligi bo'yicha yondashuv hamda shartnoma bo'yicha mavjud risk va yutuqlarni aniqlashga bo'lgan yondashuvlar natijasida tan olinishi kerak.

Mahalliy olimlarimizdan Baxadirov (2025) o'z tadqiqotida ijara hisobini xalqaro amaliyot asosida moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, moliyaviy hiobotdan foydalanib qaror qiluvchilar uchun sahofoflikni oshirishi hamda aktivlar va majburiyatlarni aks ettilishi natijasida investitsion jozibadorlik ortishini ta'minlashini ta'kidlagan. Xasanboyev (2025) olib borgan izlanishida aktivdan foydalanish huquqi tarzidagi aktivni tan olish va uning moliyaviy hisobotlariga ta'sirini o'rganib, ijara muomalalarini aktiv sifatida tan olish mezonlari hamda shartlarini tahlil qilgan. Unda aktivdan foydalanish huquqi tarzidagi aktiv ijara oluvchiga ijara muddati davomida aktivdan foydalanish huquqini ifodolovchi aktiv ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, Djumayeva (2024) o'zining ilmiy-uslubiy asarlarida ijara va lizing operatsiyalarini farqlari hamda ularning moliyaviy hisobotlarda operativ va moliyaviy ijara sifatida tasniflanishini ta'kidlab, mulk huquqi ijara turidan kelib chiqqan holda farqlanishi, ya'ni operativ ijarada mulk huquqi o'tmasligini bayon qilgan.

Ushbu olib borilgan izlanishlarda, albatta ijara muomalari hisobini iqtisodiyotdagi ahamiyati hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirishini tadqiq qilingan bo'lsada, xalqaro standartlar asosida ijara operatsiyalari hisobi va ularni tan olish, moliyaviy hisobotlarda tasniflash borasida izlanishlar yetarlicha emas deb o'ylaymiz. Ushbu maqolada ijara bo'yicha aktivdan foydalanish huquqi hamda ijara majburiyatini 16-son MHXS asosida tahlil qilamiz.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda ijara muomalalarini buxgalteriya hisobida to'g'ri va to'liq aks ettirish borasida xalqaro va milliy standartlar tahlil qilinib, taqqoslama tahlil usuli qo'llanildi. Xususan, 16-son MHXS asosida ijara operatsiyalarini o'rganish orqali aktivdan foydalanish huquqi hamda ijara majburiyati tan olish va baholash masalalari chuqur tahlil qilindi. Shuningdek 6-son BHMS bo'yicha ijara operatsiyalari hisobi tahlil qilinib, xalqaro standard talablari bilan taqqoslangan holda farqli va o'xshash jihatlari o'rganib chiqildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ijaraga oluvchi ijara shartnomasi boshida o'zida aktivdan foydalanish huquqi tarzidagi aktiv hamda unga mutanosib ijara majburiyatni tan oladi. 16-son MHXSga muvofiq, ijaraga oluvchi subyekt agar ijarada muddati o'n ikki oydan ortiq muddatni qamrab olsa yoxud ijara shartnomasi bo'yicha ijara obyektining qiymati past qiymatli aktiv deb e'tirof etilmasa, ushbu turdagi barcha ijara shartnomalarida ijaraga oluvchi subyekt o'zining moliyaviy holat

to'g'risidagi hisobotida foydalanish huquqi tarzidagi aktiv ya'ni ijara obyektidan foydalanish huquqini hamda va unga mutanosib ijara majburiyatini tan oladi. Ushbu tartib ijara munosabatlarini avvalgidek operativ ijara va moliaviy ijara sifatida tasniflash amaliyotini bekor qiladi va moliaviy hisobot foydalanuvchilari uchun barcha muhim ijara shartnomalari moliyaviy hisobotlarda to'liq aks etishini ta'minlaydi.

16-son MHXS ijara oluvchi hisobida ijara hisobini tubdan o'zgartirdi va yangi modelni taqdim etdi. Ushbu modelga muvofiq, ijara oluvchi ijara shartnomasi boshida ijara shartnomasiga muvofiq ikki element:

- 1) Foydalanish huquqi tarzidagi aktiv;
- 2) Ijara majburiyatini tan oladi.

Boshqacha aytganda, ijarachi ijara bo'yicha tayanch aktivdan foydalanish bo'yicha tegishli aktivni hamda kelajakdagi ijara to'lovlari bo'yicha majburiyatni tan oladi.

1. Ijara shartnomasiga muvofiq ijara majburiyatini dastlabki tan olish.

Ijara majburiyati – bu ijara boshlanish sanasida to'lanmagan kelgusi ijara to'lovlarining joriy (diskontlangan) qiymatlari yig'indisidir. Ijara majburiyati majburiyatning so'ndirilish muddatiga muvofiq ikki turga tasniflanadi:

1) Ijara bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar - bu ijara oluvchi subyektning kelgusi ijara to'lovlarining joriy (diskontlangan) qiymati bo'yicha joriy bo'lmagan qismi (hisobot sanasidan o'n ikki oy o'tgandan keyin so'ndiriladigan to'lovlar). Ushbu uzoq muddatli majburiyatlar moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda 0620- "Ijara bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar " satrida aks ettiriladi.

2) Ijara bo'yicha joriy majburiyatlar – bu ijara oluvchi subyektning kelgusi ijara to'lovlarining joriy (diskontlangan) qiymati bo'yicha joriy qismi (hisobot sanasidan keyingi o'n ikki oy ichida so'ndiriladigan to'lovlar). Ushbu qisqa muddatli majburiyatlar moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda 0820 - "Ijara bo'yicha joriy majburiyatlar " satrida aks ettiriladi.

Ijara majburiyatini dastlabki baholashda kelgusi ijara to'lovlari sifatida quyidagi to'lovlar hisobga olinadi:

- Ijara shartnomasi bo'yicha belgilangan qat'iy to'lovlar;
- Ijara shartnomasi bo'yicha belgilangan o'zgaruvchan to'lovlar;
- Ijara muddati oxirida aktivning kafolatlangan qiymati bo'yicha to'lovlar;
- Ijara shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish huquqidan foydalanish ehtimoli mavjud bo'lganda, shartnomani bekor qilish uchun belgilangan jarimalar;
- Ijara muddati oxirida aktivni sotib olish bo'yicha huquqqa ega bo'lish uchun to'lovlar

Ijara to'lovlarini joriy (diskontlangan) qiymatini aniqlashda diskontlash uchun ijara shartnomasida nazarda tutilgan foiz stavkasi (aniq ko'rsatilgan va ishonchli baholash mumkin bo'lsa) asosida yoxud bunday stavkani aniqlash imkoni bo'lmasa, ijara oluvchi ijara muddati bilan taqqoslanadigan muddatda, shunga o'xshash shartlar bilan bir xil aktivni sotib olish uchun jalb qilishi mumkin bo'lgan qarz stavkasi qo'llaniladi. Ijara to'lovlari bo'yicha diskontlash stavkasi ijara to'lovlarining amalga oshirilish davriyligi va muddatlariga mutanosib ravishda aniqlanishi va qo'llanilishi kerak (masalan, to'lovlar oyma-oy amalga oshirilgan taqdirda, diskontlash stavkasi oylik davr uchun aniqlanadi).

Keyingi hisobga olish.

Ijara majburiyati dastlab tan olingandan so'ng, ijara majburiyati hisobi amortizatsiyalangan qiymat asosida yuritiladi. Ijara shartnomasiga muvofiq ijara majburiyatining amortizatsiyalangan qiymati ijara to'lovlarining amalga oshirish muddatiga bog'liq holda shakllantiriladi.

Agar ijara to'lovlari oldindan (ijara davri boshlanishidan oldin yoki boshida) amalga oshirilsa, ijara majburiyati hisobi dastlab tan olingan boshlang'ich qiymatidan oldindan to'langan to'lovlar chegirilgandan keyingi qiymat bo'yicha foiz hisoblangan holda hisobga olinadi yoki ijara to'lovlari ijara davrining oxirida amalga oshirilsa, ijara majburiyati boshlang'ich tan olinadigan qiymati ustidan foiz xarajatlari hisoblangan holda baholanadi.

Ijara majburiyati bo'yicha foiz xarajatlar. Ijara majburiyatlarining har bir hisobiy davr yakunidagi qoldig'iga muvofiq ijara majburiyatlarini joriy (diskontlangan) qiymatini hisoblashda qo'llanilgan diskontlash stavkasidan foydalanilgan holda har hisobot davri uchun foiz xarajati tan olinadi. Ushbu hisoblangan foiz xarajati bir tomondan ijara majburiyatini oshirib, ikkinchi tomondan moliyaviy xarajat sifatida tan olinadi. Ushbu hisoblangna foiz xarajatlar Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotning 0350-“Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar” satrida tan olinadi.

Ijara shartnomasiga muvofiq foydalanish huquqi tarzidagi aktivni dastlabki tan olish. Foydalanish huquqi tarzidagi aktiv– ijaraga oluvchi subyektning ijara shartnomasiga muvofiq ijara muddati davomida ijara obyektidan foydalanish huquqi qiymatini ifodalovchi aktivdir. Foydalanish huquqi tarzidagi aktiv moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda uzoq muddatli aktivlar bo'limida 0120-“ Foydalanish huquqidagi aktiv” satrida aks ettiriladi.

16-son MHXS ga muvofiq ijaraga oluvchi foydalanish huquqi tarzidagi aktivni ijara boshlanish sanasida uning tannarxi (boshlang'ich qiymati) bo'yicha tan oladi. Foydalanish huquqi tarzidagi aktivning tannarxi quyidagi elementlarni kiritgan holda aniqlanadi:

- *Ijara shartnomasi bo'yicha ijara to'lovlarining joriy (diskontlangan) qiymati* –ya'ni ijara shartnomasi doirasida kelajakda to'lanadigan ijara to'lovlarining joriy (diskontlangan) qiymatlari yig'indisi.

- *Ijara bo'yicha oldindan to'langan to'lovlar* – ijaraga oluvchi tomonidan ijara boshlanishidan oldin yoki boshlanishida amalga oshirilgan bo'nak to'lovlar.

- *Ijara oluvchi subyektning ijara bilan bevosita bog'liq bo'lgan dastlabki xarajatlari* – bu ijara shartnomasini tuzishda bevosita amalga oshirilgan xarajatlar (masalan, vositachilik, yuridik maslahat va h.k)

- *Demontaj xarajatlari* – agar ijara muddati oxirida ijara shartnomasiga binoan ijaraga oluvchi ijara obyektini demontaj qilish, oldingi holatiga keltirish, tekislash kabi xarajatlarni amalga oshirishni nazarda tutsa, ushbu majburiyatning joriy (diskontlangan) qiymati.

Agar ijara beruvchi ijara oluvchiga ijara bo'yicha imtiyoz taqdim etgan bo'lsa yoki boshlang'ich to'lovlar chegirma bilan amalga oshirilsa, bunday ijara imtiyozlari summasi ham foydalanish huquqi tarzidagi aktiv qiymatidan chegirib tashlanadi.

Agar ijara shartnomasi bo'yicha ijara muddati qisqa muddatni (o'n ikki oydan kam va ijara muddati oxirida obyektini sotib olish imkoni mavjud emas) tashkil etsa yoxud ijara obyektini past qiymatli obyekt bo'lsa ushbu turdagi ijara munosabatlari bo'yicha aktivdan foydalanish huquqi tarzidagi aktiv hamda ijara majburiyati tan olinmasligi va ijara to'lovlari har oy (yoki boshqa davriylikda) to'g'ridan-to'g'ri xarajat sifatida (ijara xarajatlari) tan olinishi mumkin.

Keyingi hisobga olish.

Dastlabki tan olingandan so'ng, foydalanish huquqi tarzidagi aktiv tannarx modeli bo'yicha jamg'arilgan eskirish xarajati va agar mavjud bo'lsa qadrsizlanishdan jamg'arilgan zararlar chegirilgan holda yoki 40-son MHXS ga muvofiq, hisobi haqqoniy qiymatda hisobga olinuvchi investitsion ko'chmas mulk hisoblansa, bunda foydalanish huquqi tarzidagi ushbu aktivlar ham haqqoniy qiymatda hisobga olinadi. Shuningdek, agar foydalanish huquqi tarzidagi aktiv ijaraga oluvchi tomonidan 16-son MHXSga muvofiq qayta baholash modeli asosida hisobga olinadigan aktivlar turiga mansub bo'lsa, qayta baholash modeli asosida hisobga olinadi.

Agar foydalanish huquqi tarzidagi aktiv 40-son MHXS asosida haqqoniy qiymatda hisobi yuritilsa, foydalanish huquqi tarzidagi aktiv haqqoniy qiymatidagi o'zgarish foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotda investitsion faoliyatdan daromadlar tarkibida alohida qatorda aks ettiriladi.

Agar foydalanish huquqi tarzidagi aktiv, 16-son BHXS talabiga muvofiq qayta baholash modeli asosida hisobga olinsa, qayta baholash bo'yicha haqqoniy qiymatdagi o'zgarishlar foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotda boshqa umumlashgan daromadlar bo'limi ostida 0710-“ Qayta baholash modeliga muvofiq baholanadigan asosiy

vositalar va nomoddiy aktivlar uchun qayta baholash natijasida qiymatning o'sishidagi o'zgarishlar" satrida aks ettiriladi.

Foydalanish huquqi tarzidagi aktiv amortizatsiya xarajatlari. Foydalanish huquqi tarzidagi aktivlar ijara oluvchining tanlagan hisob siyosatiga muvofiq ijara muddati davomida to'liq amortizatsiya qilinadi. Ushbu xarajatlar foydalanish huquqi tarzidagi aktivni foydalanish maqsadidan kelib chiqib tegishli xarajatlar tarkibida (masalan, sotish xarajatlari, ma'muriy yoki ishlab chiqarish xarajatlari) tan olinadi.

Ijara to'lovlarining pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotda aks ettirilishi.

Ijaraga oluvchi ijara bo'yicha pul mablag'lari harakatini quyidagicha hisobga olishi tavsiya etiladi:

a) Ijara majburiyatining asosiy qarz qismi (kapital qismlar) bo'yicha to'lovlar- moliyaviy faoliyatdan pul oqimlari bo'limi ostida;

b) Ijara majburiyatining foiz qismi bo'yicha pul to'lovlari - moliyaviy faoliyatdan pul oqimlari bo'limi tarkibida;

c) Qisqa muddatli yoki past qiymatli aktivlar ijarasi bo'yicha to'lovlar hamda ijara majburiyatining o'lchoviga kiritilmagan o'zgaruvchan ijara to'lovlari - operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlari bo'limi tarkibida aks ettirish.

Ijara bo'yicha pul mablag'lari harakatini hisobga olishda, tashkilot asosiy faoliyatini ham inobatga olgan holda aks ettirish kerak. Asosiy faoliyati ijara bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar yoki asosiy faoliyati investitsiyaviy faoliyat bo'lsa, ijara to'lovlari va ijara majburiyatining foiz qismi bo'yicha to'lovlar operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlari tarkibida aks etiriladi.

Moliyaviy hisobotga izohlarda foydalanish huquqi tarzidagi aktiv va ijara majburiyati bo'yicha izohlar. Ijaraga oluvchi moliyaviy hisobotga izohlar hisobotida hisobot davri uchun quyidagilarni yoritishi kerak:

- foydalanish huquqi tarzidagi aktivlari kirimi va chiqimi bo'yicha ma'lumotlar;
- foydalanish huquqi tarzidagi aktivlari bo'yicha hisoblangan eskirish xarajatlari summasi;
- ijara majburiyati bo'yicha hisoblangan foiz xarajatlari;
- qisqa muddatli hamda past qiymatli aktivlar ijarasi bo'yicha amalga oshirilgan xarajat summalari;
- ijara majburiyati hisoblashda hisobga olinmagan o'zgaruvchan ijara to'lovlar;
- foydalanish huquqi tarzidagi aktivlarini qayta ijaraga berishdan olingan daromad summasi;
- ijara bo'yicha amalga oshirilgan jami pul chiqimlar va boshqalar.

Ushbu ma'lumotlar yoritilishi moliyaviy axborotdan foydalanib qaror qiluvchilar uchun o'rinni va haqqoniy tarzda yoritilgan bo'lishi kerak. Natijada, axborotdan foydalanib qaror qiluvchilar uchun, to'g'ri va samarali qaror qilish imkoni yanada oshadi.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, 16-son MHXS ijaraga oluvchilar moliyaviy hisobotlarini yanada to'liqroq va aniqroq ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Bu o'z navbatida, moliyaviy hisobotlarning sifatini va haqqoniy tarzda taqdim etilishini oshirib, potensial axborot foydalanuvchilari bo'lgan kreditorlar, investorlarga korxonalar moliyaviy holati va natijasini hamda pul oqimlarini aniqroq baholash imkonini yaratadi.

### **Xulosa va takliflar.**

16-son MHXS asosida ijara operatsiyalarini moliyaviy hisobotlarda tan olinishi o'rganish natijasida, korxonalar moliyaviy hisobotlarida aktivdan foydalanish huquqi tarzidagi aktiv hamda ijara majburiyatini aks ettirish moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar uchun ijobiy qarorlar qabul qilishi hamda investitsion qarorlarni samaradorligini oshirishda ulkan ta'sirga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. O'zbekistonda ijara hisobini xalqaro amaliyot asosida hisobini tashkil etish, mahalliy hamda xalqaro investorlar uchun moliyaviy axborot sifatining oshishiga hamda investorlarning axborotga bo'lgan ishonchini ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z

navbatda xalqaro darajada investitsiyalar oqimini ko'payishiga hamda iqtisodiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shadi.

#### **Adabiyotlar/Jumepamypa/References:**

16-son MHXS (2016). Ijara. Available at: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-16-leases/>

6-sonli BHMS (2009) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009-yil 6-apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. 6-sonli BHMS – "Ijara hisobi". Adliya vazirligida 2009-yil 24-aprelda 1946-son bilan ro'yxatdan o'tgan. Available at: <https://lex.uz/acts/1473352>

Baxadirov, A. (2025). Lizing oluvchi korxonalarda ijara hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish. *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar ilmiy jurnali*, 2(1), 417–422.

Chen, C.-W., Correia, M. va Urcan, O. (2023). Accounting for Leases and Corporate Investment. *The Accounting Review*, 98(3), 109–133.

Djumayeva, G.A. (2024). Ijara hisobining dolzarbligi va unga nazariy asoslarda berilgan ta'riflar. *Экономика и соцуум*, №5(120)-2.

Gordon, E.A., Wang, W. va Zhao, L. (2025). Operating Lease Accounting and Private Loan Contracts.

Hasanboyev, O.X. (2025). 16-son MHXS doirasida foydalanish huquqi tarzidagi aktivning tan olinishi va moliyaviy hisobotlarda ifodalanishi. *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali*, 5(06), 47–53.

Nizom (2024). O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi 181-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida". Available at: <https://www.lex.uz/docs/7194594>

Qaror (2020). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarori "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". Available at: <https://lex.uz/docs/-4746047>

Sorrentino, M., Smarra, M. va Briamonte, M.F. (2020). Lease Accounting: Back into the Past—A General Review of Different Theoretical Approaches. *International Journal of Business and Management*, 15(2).